



Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-sentyabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 26 092,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi*105,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (98,0 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishiga asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 6,1 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda – 9,6 % ga pasayish kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25560,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 98,0 % ini tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-sentyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 116,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (118,9 %), 45,8 ming tonna, kalava ip (106,7 %), 585,2 ming. litr aroq mahsulotlari (101,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. 441,3 ming litr uzum vinosi (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 0,1 % ga pasaygan).



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentyabr	2020- yil yanvar-sentyabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, dona	144 224	171 881	27 657
Bug'doy uni, tonna	97 952	116 473	18 521
Paxtadan yigirilgan ip, tonna	42 976,1	45 842,5	2 866,4
Aroq, ming. litr	579,0	585,2	6,2
Uzum vinosi, ming. Litr	445,5	441,3	- 4,2
Etil spirti, ming. Litr	8 991,0	9 934,0	943



Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati (dona)




«Cobalt»



«Nexia T-250»




«Gentra»



«Spark»



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 420,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,5 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,0 % ga o'sganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentyabr	2020- yil yanvar-sentyabr	Farqi +/-
Elektr energiya, mln.kVt/s	397,6	231,1	-166,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	41,7	47,3	7,6



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 68,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar- sentyabr	2020- yil yanvar- sentyabr	Farqi +/-
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	15,6	15,7	0,1
Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	28,7	31,6	2,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish 9,8 % ga, hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 0,7 % ga oshganlik kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 19 810,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,9 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-sentyabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 91,5 % dan 91,6 % gacha oshganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2019- yil yanvar-sentyabr oylarida ham 0,1 %)ni tashkil etgan edi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 78,6 % ni, shuningdek, Andijon shahri 5,2 % ni, Xo'jaobod tumani 2,7 % ni, Oltinko'l tumani 1,7 % ni hamda Shahrixon tumani 1,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jaobod (113,3 %), Oltinko'l (117,5 %) hamda Asaka tumanlarida (109,5 %) ni qayd etdi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, % da
Andijon viloyat bo'yicha:	19810,7	100,0	108,4
Andijon shahar	1022,1	5,2	102,3
Xonobod shahar	99,2	0,5	103,7
tumanlar:			
Andijon	310,1	1,6	101,3
Asaka	15564,6	78,6	109,5
Baliqchi	187,2	0,9	101,1
Buloqbo'shi	203,7	1,0	104,1
Bo'ston	135,2	0,7	100,2
Jalaquduq	219,7	1,1	101,0
Izboskan	184,3	0,9	100,4
Ulug'nor	80,7	0,4	107,5
Marhamat	147,2	0,7	101,7
Oltinko'l	340,0	1,7	117,5
Paxtaobod	190,8	1,0	103,5
Xo'jaobod	526,2	2,7	113,3
Shahrixon	333,2	1,7	100,6
Qo'rgontepa	266,5	1,3	104,2



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4234,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.



Hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-sentyabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Andijon viloyat bo'yicha:	26092,8	105,1
Andijon shahar	4091,6	107,6
Xonobod shahar	966,8	110,2
tumanlar:		
Andijon	596,3	100,7
Asaka	15985,1	104,2
Baliqchi	484,7	92,9
Buloqbo'shi	213,4	100,5
Bo'ston	206,4	102,2
Jalaquduq	352,8	101,2
Izboskan	463,4	134,9
Ulug'nor	157,3	97,8
Marhamat	248,2	110,8
Oltinko'l	426,6	130,7
Paxtaobod	326,1	102,4
Xo'jaobod	520,2	104,7
Shahrixon	515,1	101,2
Qo'rgontepa	538,8	107,7


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2020-yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 26 092,8 mlrd. so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 15 985,1 mlrd. so'mni, Andijon shahrida 4091,6 mlrd. so'mni, Xonobod shahrida 966,8 mlrd. so'mni, Andijon tumanida esa 596,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishiga, Izboskan (134,9 %), Oltinko'l (130,7 %), Qo'rg'ontepa (107,7 %), Asaka tumanlarida (104,2 %) hamda Xonobod (110,2 %) va Andijon shaharlarida (107,6 %)ga sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Andijon viloyati tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishda Oltinko'l (2019- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 117,5 %), Xo'jaobod (113,3 %), Asaka (109,5 %), Bo'ston (100,2 %), Xonobod sh (103,7 %), Andijon sh (102,3 %), Marhamat (101,7 %), Buloqboshi (104,1 %), Pahtaobod (103,5 %), Qo'rg'ontepa tumanlarida (104,2 %)ga sezilarli darajada oshdi.



Andijon viloyati tumanlar kesimida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Asaka tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 61,3 %), Andijon shahar (15,7 %), Xonobod shahar (3,7 %), Andijon (2,3 %), hamda Qo'rgontepa (2,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Ulug'nor (0,6 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (48 675,6 ming so'm), Xonobod sh (22 588,0 ming so'm), Andijon shahrida (9200,9 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8 283,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 6 289,3 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida – 47 395,3 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida – 4 770,0 ming so'mni, Andijon shahar – 2 298,4 ming so'mni, Bo'ston tumanida 1 872,2 ming so'mni, Oltinko'l tumanida 1 909,3 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-sentyabr oylarida, ming so'm).

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Andijon viloyat:	8283,7	6289,3
Andijon sh	9200,9	2298,4
Xonobod sh	22588,0	2318,5
tumanlar:		
Andijon	2260,5	1175,4
Asaka	48675,6	47395,3
Baliqchi	2414,9	932,5
Buloqboshi	1494,2	1426,6
Bo'ston	2858,4	1872,2
Jalaquduq	1898,0	1181,9
Izboskan	1945,5	773,7
Ulug'nor	2634,7	1352,4
Marhamat	1433,2	850,0
Oltinko'l	2395,4	1909,3
Pahtaobod	1689,0	987,9
Xo'jaobod	4716,3	4770,0
Shahrixon	1718,2	1111,3
Qo'rg'ontepa	2492,0	1232,6



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-sentyabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4568,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Izboskan tumanida (91,3 %), Shahrixon (84,1 %), Jalaquduq (77,3 %), Xo'jaobod (61,5 %), Pahtaobod (59,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Asaka (1,9 %), Honobod sh (13,1 %), Andijon sh (20,7 %), hamda Qo'rg'ontepa tumanida (41,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- oktyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8111 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 3019 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 37,2 %) Andijon shahriga, 850 tasi (10,5 %) Asaka tumaniga, 630 tasi (7,8 %) Andijon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda.		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda.
32	Ulug'nor	84
34	Honobod sh	142
94	Bo'ston	164
92	Pahtaobod	207
85	Buloqboshi	234
74	Marhamat	237
81	Baliqchi	256
113	Jalaquduq	277
86	Izboskan	282
105	Qo'rgontepa	319
102	Oltinko'l	362
131	Xo'jaobod	438
149	Shahrixon	610
125	Andijon	630
153	Asaka	850
681	Andijon sh	3019

2020- yil yanvar-sentyabr oyida viloyatda 2 137 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 681 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 31,9 %) Andijon shahrida, 153 tasi (7,2 %) Asaka tumanida, 149 tasi (7,0 %) Shahrixon tumanida, 105 tasi (4,9 %) Qo'rg'ontepa tumanida, 94 tasi (4,4 %) Bo'ston tumanida hamda 113 tasi (5,3 %) Jalaquduq tumaniga to'g'ri keldi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2020- yil 1- oktyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Andijon shahrida (3 019 ta), Asaka (850 ta), Andijon (630 ta), Shahrixon (610 ta), Xo'jaobod (438 ta), Oltinko'l (362 ta), Qo'rg'ontepa (319 ta), Izboskan tumanlari (282 ta) ni qayd etdi.



2020- yilning 1-oktyabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (277 ta), Baliqchi (256 ta), Marhamat (237 ta), Buloqboshi (234 ta), Pahtaobod (207 ta), Bo'ston (164 ta), Ulug'nor tumanlarida (84 ta) hamda Xonobod shahrida (142 ta) qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (74) 228-30-42